

TA'LIM SIFATI MENEJMENTI VA UNGA BO'LGAN YONDASHUVLAR

Bozorov Zokir Yuldosh o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

zokirinstitut@gmail.com

Annotatsiya: Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlashda o'quv-me'riy hujjatlar (davlat ta'lim standarti, malaka talablar, o'quv reja, fan dasturlari, dars jadvalining to'g'ri shakllantirilganligi) asosida o'quv jarayonining to'g'ri tashkil etilishga alohida e'tibor qaratish lozimligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, ta'lim sifatini baholovchi yondoshuvlar, davlat ta'lim standarti, an'anaviy yondashuv, ilmiy yondashuv menejerlik yondashuvi, iste'molchilik yondashuvi, demokratik yondashuv.

Аннотация: При обеспечении качества образования в высших учебных заведениях на основании образовательных и нормативных документов (государственных образовательных стандартов, квалификационных требований, учебного плана, предметных программ, правильного составления расписания занятий) выделено, что особое внимание следует уделять правильной организации учебного процесса.

Ключевые слова: качество образования, подходы к оценке качества образования, государственный образовательный стандарт, традиционный подход, научный подход, управленческий подход, потребительский подход, демократический подход.

Abstract: Ensuring the quality of education in higher education institutions based on educational and regulatory documents (state educational standards, qualification requirements, curriculum, subject programs, and the correct formulation of the lesson schedule) it is highlighted that special attention should be paid to the proper organization of the educational process.

Key words: quality of education, approaches to evaluate the quality of education, state educational standard, traditional approach, scientific approach, managerial approach, consumer approach, democratic approach.

Ta'lim sifati avvalo, ta'lim oluvchiga turli metodikalar yordamida bilim beruvchi professor-o'qituvchilar tarkibining sifati bilan aniqlanadi.

Sifat maqsadlarga mos kelish darajasi sifatida hozirgi kundagi eng ko'p ishlatiladigan kategoriyalardan biri hisoblanadi. Buning asosida hozirda xalqaro amaliyotda quyidagi asosiy yondashuvlar ajratib ko'rsatilgan:

An'anaviy yondashuvga ko'ra: ta'lim sifati ta'minlash o'quv yurtining nufuzini oshirishdan iborat, sababi bunday oliy ta'lim muassasini tugatgan bitiruvchi mehnat bozorida birmuncha yuqori o'rinni egallaydi.

Ilmiy yondashuv belgilangan standartlarga mos kelishdan bilan bog'liq.

Menejerlik yondashuvi o'zida sifatli ta'lim deb buyurtmachining qoniqish vaziyatini aks ettiradi.

Iste'molchilik yondashuvi mijoz talabiga mos sifatni aniqlaydi va uning har qanday istagini bajariladi.

Demokratik yondashuvda oliy ta'lim muassasining o'zi joylashgan mintaqaga, jamiyatga keltiriladigan foyda nazarda tutiladi.

Hozirgi raytda aksariyat oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash sifati ko'rincha moddiy-texnik baza (ya'ni, o'quv-laboratoriya maydoni zarur asbob-uskunalarining mavjudligi, zamonaviy informatsion texnologiyalarning keng srektridan foydalanish) holati bo'yicha aniqlanadi. YA'ni, moddiy texnik bazani mustahkamlash orqali davlat ta'lim standartlari (DTS)ning to'liq bajarilishiga erishiladi.

DTS – standartlashtirish obektiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilaydi hamda O'zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi.

Davlat ta'lim standartlari: kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni;

ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini;

o'quv yuklamasining zaruriy hajmini;

oliy ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va yo'llarini belgilab beradi.

DTS ta'lim jarayoni va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa meyoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi ishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

1. Ta'limning yuksak sifatini hamda respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barro etish talablariga javob beruvchi kadrlar yetishtirishni ta'minlash.

2. Mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat talablaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish.

3. Ta'limning demokratiyalashuvi, insonrarvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish.

4. Ta'lim jarayonida sifatli xizmat ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

5. Kadrlar tayyorlash sifati va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

6. Ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya ishlarini qo'shib olib borish;

7. Ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Davlat ta'lim standartlaridan ko'zlangan vazifalar quyidagilardan iborat:

- ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- ta'limga va uning rirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va malaka darajasini vaqt-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi bazani yaratish;

- o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining redagogik texnologiyalariga va ularni zamonaviy axborot tizimi bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini kuzatib borishga, oliy ta'lim muassasasida bilim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan meyorlar va talablarni belgilash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

- milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

DTS ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:

- umumiy o'rta ta'lim;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari);

- oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura).

Maktabgacha, maktabdan tashqari, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10 yanvarda Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida 3- son Qarori qabul qilindi [1].

Unda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqib, iqtisodiyot sohalarining modernizatsiyalashuv sharoitida kadrlar iste’molchilarining talablarini oliy ta’lim mazmuniga tezkor joriy etilishiga tegishli sharoitlar yaratish, oliy ta’lim davlat ta’lim standartlarini xalqaro amaliyotdagi akademik standartlar bilan uyg‘unlashtirish hamda ularning uzviylikini ta’minlash uchun bir qator qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi [2].

Ishchi o‘quv rejalar namunaviy o‘quv rejalariga asosan aniq bir bakalavriat ta’lim yo‘nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo‘yicha har o‘quv yili uchun ta’lim dasturlari, o‘quv kurslari, fanlari va o‘quv yillari bo‘yicha ixtisoslik, tanlov va qo‘shimcha fanlarni shakllantirgan holda ishlab chiqiladi va o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadi. Ushbu o‘quv-meyoriy hujjatlar oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini boshqarish va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim muassasada ta’lim sifatini ta’minlash asosan quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosi;
- o‘quv va o‘quv-uslubiy ishlar uzluksizligi va yangi redagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi;
- ta’lim muassasasi moddiy-texnik va o‘quv bazasining zamonaviyligi;
- ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligi;
- ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligi.

Ushbu ishlarni bir butunlikda boshqarish tizimni tartibga soladi, uning yaxlitligini ta’minlaydi, uning sifatini tavsiflaydi. Demak, bo‘lg‘usi mutaxassislarni sifatli tayyorlashga tizimli yondashuv asosida uning barcha elementlarining yaxlitligini ta’minlash muhimdir. Agar bo‘lg‘usi mutaxassisni ham mutaxassis, ham o‘quv-tarbiya jarayoni ishtirokchisi sifatida tayyorlashda ta’lim tizimining elementlari yuqori sifatli va meyoriy talablarni qanoatlantirmasa, u holda kadr sifatli tayyorlanayotganligi haqida aniq xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

Shunga qaramay, boshqarishga tizimli yondashuv o‘zining ayrim kamchiliklariga ham ega, aynan subektlarning faolliklarini hisobga olish, ularning rivojlanishi va shaxsiy o‘shishiga zaruriy o‘zgartirishlar kiritishiga hamma vaqt ham imkon bermaydi.

OTMda ta’lim sifatini ta’minlashda o‘quv-me’riy hujjatlar (davlat ta’lim standarti, malaka talablar, o‘quv reja, o‘quv jarayoni jadvali, fan dasturlari, dars

jadvalining to‘g‘ri shakllantirilganligi) asosida o‘quv jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishga alohida e‘tibor qaratish lozim.

OTMda ta‘lim sifatini ta‘minlash faqatgina moddiy texnik baza yoki o‘quv meyoriy hujjatlarning mavjudligiga emas, balki o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi pedagog xodimlarning ilmiy-metodik salohiyati, xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal egallaganligi va undan mashg‘ulotlarda samarali foydalanish olish kompetensiyalariga ega bo‘lishiga bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son qarori/ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
2. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.2005. 149 b.
3. Ibragimov. X.Uzluksiz ta‘lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash samaradorligini oshirish – davr talabi. Ta‘lim muammolari. Ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent 2011 yil 2–son. 9-11 bet.